

**Samarqand davlat universitetining
2021-yil 9-noyabrdagi 404-ij sonli
buyrug'iga 1-ilova**

**Samarqand davlat universiteti talabalari uchun Nobel mukofoti laureati
Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasi va uni tayinlash tartibi
to'g'risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat universitetining kimyo, biologiya ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan 2, 3-kurs talabalari uchun ta'sis etiladi.

2. Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasi Samarqand davlat universitetining kimyo, biologiya yo'nalishlarida ta'lim olayotgan 2, 3-kurs bakalavr yo'nalishi talabalari uchun tayinlanadi.

II. Stipendiya belgilash tartibi

3. Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasi har o'quv yilida 1-sentabrdan keyingi yilning may oyigacha kimyo, biologiya ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan 2, 3-kurs talabalariga (talabalarga tayinlanadigan stipendiyaning 33 foizi miqdorida) universitet Kengashining qarori hamda universitet rektorining buyrug'i bilan tayinlanadi.

4. Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasi universitetning b'djjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

III. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

5. Aziz Sanjar nomidagi stipendiyaga o'quv jarayonida barcha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichi a'lo (ko'pi bilan 25 foizi yaxshi) darajada bo'lgan, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan, ilmiy maqolalari chop etilgan 2-3-kurs kimyo, biologiya yo'nalishi talabalari da'vogar bo'lishlari mumkin.

6. Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasiga da'vogar bakalavr talabalarining ma'lumotlari (hujjatlari jamlangan yig'ma jildlari) har yili 20-avgustga qadar universitet Kengashiga taqdim etiladi.

IV. Stipendiyaga topshiriladigan hujjatlar

7. Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasiga nomzodlar quyidagi hujjatlarni iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limiga taqdim etadi;

- Dekanat va kafedra tavsiyanomasi;
- Reyting daftarchasi nusxasi (nusxa fakultet dekani imzosi va fakultet muhri bilan tasdiqlanadi);
- Ilmiy ishlar ro'yxati;

- Ilmiy (ijodiy) ishlar annotatsiyasi;
- Ilmiy maqolalar nusxalari;
- Ilmiy (ijodiy) ish bo'yicha ilmiy rahbar va kafedraning xulosasi;
- Pasport nusxasi;
- 2 dona 10x15 sm o'lchamdagi rangli fotosurat;

Qo'shimcha hujjatlar (Sertifikat, faxriy yorliq, maqtoov yorlig'i... *faqat o'qishi davomida erishilgan yutuqlari inobatga olinadi.*) Barcha hujjatlar jildga joylangan holda taqdim etiladi.

V. Hujjatlarni ko'rib chiqish tartibi

8. Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasiga nomzodlar bakalavr va magistrantlarning hujjatlarini har yili 20-avgustiga qadar tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi, g'oliblar ro'yxati shakllantiriladi va universitet Kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

9. Universitet kengashi tomonidan Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasiga nomzodlarni tayinlash to'g'risidagi qaror chiqaradi.

VI. Yakuniy qoidalar

10. Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasiga tayinlangan stipendantlarga sertifikatlar universitet kengashining yig'ilishida tantanali ravishda topshiriladi hamda universitet veb-sahifasida yoritib boriladi.

11. Aziz Sanjar nomidagi stipendiya talabalarni kundalik darslarni o'zlashtirmaganlik, o'quv intizomini va ilmiy odob-axloqni buzganlik uchun o'quv yili mobaynida universitet stipendiyalaridan mahrum qilish fakultetlarning taqdimnomalariga binoan universitet rektorining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

12. Talabalarning Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar nomidagi universitet stipendiyasini tayinlash bo'yicha ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda universitet rektorining buyrug'iga asosan tuzilgan komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.